

O'ZBEKISTON – POKISTON ALOQALARINING ISTIQBOLLARI

O'tkirbekov Xusanboy O'tkirbek o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303 -guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida Pokiston bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, so'nggi yillardagi diplomatik tashriflar, ikki davlat o'rtasidagi savdo, iqtisodiy, siyosiy tashriflar, do'stlik aloqalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: diplomatik munosabatlar, O'zbekiston va Pokiston, tovar aylanmasi, yengil sanoat, Lohur, savdo ayirboshlash, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, eksport, Imron Xon,

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations with Pakistan in the years of Uzbekistan's independence, diplomatic visits in recent years, trade, economic, political visits, and friendly relations between the two countries.

Key words: diplomatic relations, Uzbekistan and Pakistan, trade, light industry, Lahore, trade exchange, scientific and technical cooperation, export, Imran Khan.

O'zbekiston hozirgi kunda ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanish maqsadida tashqi davlatlar bilan ikkala tomon uchun manfaatli bo'lgan aloqalar o'rnatishga harakat qilmoqda. Bulardan biri sifatida Pokiston bilan bo'layotgan munosabatlarni misol keltirish mumkin. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar 1991-yilda 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'rnatildi va o'zaro diplomatik munosabatlar esa, 1992-yil 10-maydan boshlab o'rnatilgan. Pokiston O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi hamda bugungi kunda O'zbekiston va Pokiston poytaxtlarida ikki davlat elchixonalari faoliyat yuritib, o'zaro hamkorlikning izchil rivojiga ko'maklashmoqda. Shuningdek, mamlakatlar parlamentlarida do'stlik guruhlarini tashkil etilgan, turli darajadagi siyosiy muloqotlar muntazam olib borilmoqda. Albatta, Pokiston bilan ko'p qirrali o'zaro manfaatli hamkorlikni har tomonlama kengaytirish bugungi kunda o'z rivojlanishining yangi tarixiy bosqichida bo'lgan O'zbekiston manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Pokiston Milliy banki o'rtasida vakolat hisob raqamlari haqida, suv xo'jaligi, energetika, irrigatsiya soxdlaridagi hamkorlikka oid hujjatlar shu jumlagi kiradi. 1995-yil mayda Pokiston Bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida Toshkentda Pokistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda Pokistonning 100 dan ortiq firmasi ishtirok etdi. 2000-yilda ikkala mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi 8,5 mln. AQSH dollariga yetdi. O'zbekiston Pokistonga teri, pilla chiqindisi, shoyi gazlama,

shisha, xrustal, yengil sanoat uchun mashina va asbob-uskunalar, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari eksport qiladi. Pokistondan esa tayyor kiyim, poyabzal, charm mahsulotlari, tamaki, kakao, shakar oladi. O'zbekistonda bir necha O'zbekiston — Pokiston qo'shma korxonasi ishlab turibdi. O'zbekiston — Pokiston do'stlik jamiyati (1991 yildan) ikkala mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda salmokli o'rin egallaydi. Ishbilarmonlar, ayollar va shoir-yozuvchilarning delegatsiyalari ayirboshlandi. Madaniyat sohasida hamkorlik davom etmoqda: E.Vohidovning "Oltin devor" asari urdu tiliga tarjima qilinib (tarjimon A. Ibrohimov), Lohurda sahnalashtirildi (1996), N. Aminovning "Bir asr hikoyati" Pokistonda urdu tilida chop qilindi (1996), A. Ibrohimovning "Urducha-o'zbekcha mushtarak so'zlar lug'ati" (1998), T.Xolmirzayevning "Urducha-o'zbekcha lug'ati" (2003) va h.k. ada-biy hamkorlik natijasidir.

O'zbekiston va Pokiston munosabatlari haqida to'xtalar ekanmiz, eng avvalo, Pokiston mamlakatimizning nafaqat, Janubiy Osiyo va islom olamidagi, balki jahon miqyosidagi ishonchli hamkorlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

O'zbekiston va Pokiston hukumatlararo savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyasi 1993-yilda ham tuzilgan bo'lib, so'nggi uch yilda ushbu komissiya faoliyati sezilarli ravishda jonlanganligini va har yili doimiy o'tkazilayotganini alohida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo ayirboshlash hajmi yangi asr boshida 50 foizga o'sib, 181 mln. dollarga teng bo'ldi. O'zbekistonda Pokiston sarmoyasi ishtirokidagi 174 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Davlatlararo madaniy-gumanitar, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va turizm sohalaridagi hamkorlikni ham yanada jonlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz rahbarining Pokistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ushbu hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish sari muhim qadam bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Tashrif arafasida ikki mamlakat ishbiarmon doiralari 150 ga yaqin vakillari, shuningdek, asosiy vazirlik, idora, tarmoq birlashmalari va savdo-sanoat palatalari rahbarlari ishtirok etgan O'zbekiston — Pokiston biznes-forumida 800 million dollarlik qo'shma savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

2021-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Imron Xon O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik aloqalarini o'rnatish to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Tashrif doirasida imzolangan 8 ta hujjat almashildi. Tranzit va savdo to'g'risidagi hamda Ishbilarmon doiralar vakillari va sayyohlik guruhlari uchun viza tartiblarini soddalashtirish to'g'risida hukumatlararo bitimlar ular orasida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, Mudofaa vazirliklari o'rtasida harbiy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida protokol, 2021-2026-yillarga mo'ljallangan Madaniy almashuv dasturi,

turizm masalalari bo'yicha anglashuv memorandumini, davlat chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari haqida oldindan axborot almashish to'g'risida bayonnoma, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Pokiston diplomatik xizmat akademiyasi o'rtasida anglashuv memorandumini, O'zbekiston – Pokiston ishbiarmonlar kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Tashrif doirasida Hukumatlararo komissiya majlisi hamda O'zbekiston – Pokiston biznes forumida 500 million dollarlikdan ziyod shartnomalar imzolanganini ma'lum qilindi.

2022-yilda mamlakatlarimiz muhim sana – diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini nishonladilar. O'tgan vaqt mobaynida siyosiy muloqot va hamkorlikda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. O'zaro tovar ayirboshlashda jadal sur'at kuzatilmoqda. O'tgan yili, pandemiyaga qaramay, uning hajmi 50 foizdan ziyodga oshdi.

Hozirda mamlakatlar xalqaro maydonda bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlab, BMT, SHHT va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar doirasida faol hamkorlik qilmoqda. Hozirgi paytda aloqalarni yaxshilash maqsadida ikkala mamlakat muzokaralar olib bormoqda. 2023-yil 24-fevral kuni Toshkent shahrida “Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha Pokiston-O'zbekiston hukumatlararo komissiyasining sakkizinchi yig'ilishi” bo'lib o'tdi. Ikkala davlat tovar va xizmatlar almashinuvini rag'batlantirish uchun bir milliard savdo bitimini imzoladi. Uchrashuvda ikki vazir turli sohalarda, jumladan, sarmoya, bank, energetika, turizm, transport va tabiiy resurslar kabi sohalarda ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikni muhokama qildi. Bayonotda qo'shimcha qilinishicha, tomonlar ikki tomonlama investitsiya salohiyatidan foydalanilmaganini ham ta'kidladilar. IGC texnologiya, innovatsiyalar va iqtisodiy sheriklik orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ikki mamlakat o'rtasidagi yaqin hamkorlik muhimligini tan oldi.

Oxirgi yillarda Pokiston bilan iqtisodiy munosabatlarimiz jadal rivojlanmoqda. Bu deyarli barcha sohalarda ko'rina boshlagan. Lekin, shunga qaramay mamlakatlar hali ham birbirining asosiy savdo hamkorlari darajasida emaslar, ammo, alohida tovarlar hamda alohida iste'molchilar nuqtai nazarida judayam bog'liqdirlar. Shuni ta'kidlash o'rinliki, mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlari bir biriga to'la mos keladi hamda ikki mamlakatda ham hozirgi savdo hajmini bir necha barobar oshirish potentsiali borligi, kelajakda savdo munosabatlarimizdagi kutilmalar faqat ijobiy tomonda rivojlanishiga ishonch beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.V.Vaxabov D.A.Tadjibayeva Sh.X.Xadjibakiyeva Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.- T.: Baktria press, 2015.
2. Логунцова И. В. “Понятие креативного туризма и его развитие”Кандидат экономических наук, доцент, факультет государственного управления, МГУ

имени М.В. Ломоносова, Москва, РФ.3.Sajid R.A. “Earth and environmental Science”: Автореф. дисс. канд. геогр. наук-Лахор. 2021.-95 с.

3. <https://parliament.gov.uz/articles/348#!>
4. “Pokiston vision 2025” jurnali
5. <https://www.eurasiareview.com/30072021-growing-pakistan-uzbekistan-relationships-oped/>
6. <https://invest.gov.uz/mediacenter/news/the-agreement-on-transit-trade-between-the-governments-of-uzbekistan-and-pakistan-was-approved/>
7. <http://tashkenttimes.uz/national/9297-uzbekistan-pakistan-set-up-joint-security-commission>
8. <https://www.radio.gov.pk/04-06-2022/pakistan-uzbekistan-bilateral-ties-will-further-strengthen-in-days-to-come-uzbek-envoy>